TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 7-oktabr | 279-10-212-Q/24 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14-sentabrdagi 647-10-0-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14-sentabrdagi “Viloyatning shahar va tumanlari hududidagi davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berish to‘g‘risida” 647-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-, 10-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1.Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 14-sentabrdagi 647-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ilovaga muvofiq tuman hududidagi davlat organlari va muassasalariga jami 5,3924 gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (O.Xoldorov) ushbu qarorga muvofiq yer maydonlari ajratilayotgan tashkilotlarning arizalariga asosan, belgilangan tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **S.Ergashev**

Toshkent tuman hokimining
2024-yil 7-oktabrdagi
279-10-212-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani hududidagi davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilayotgan, amalda foydalanib kelayotgan yer maydonlari

T/r	Hudud nomi	Doimiy foydalanish huquqi bilan yer maydoni ajratilayotgan davlat idorasi nomi	Yer maydonidan foydalanuvchi yoki yer maydonida joylashgan obyekt nomi	Yer maydoni *(gektar)*	Kadastr raqami
Toshkent tumani bo‘yicha jami – 6 ta				**5,3924**	
1	Toshkent tumani	Tuman tibbiyot birlashmasi	Keles oilaviy shifokorlik punkti	0,104\	11:11:09:02:03:0938
22	Toshkent tumani	tuman tibbiyot birlashmasi	76-sonli oilaviy poliklinika	0	11:11:02:02:03:0232
3	Toshkent tumani	tuman tibbiyot birlashmasi	76-sonli oilaviy poliklinika	0,2834	11:11:08:01:02:0451
4	Toshkent tumani	Qishloq xo‘jaligi vazirligi	Sabzavot poliz bekinlari mahsulotlari	1,048	11:11:10:02:03:1162

			urug‘larini qayta ishlash sexi bino inshootlari		
5	Toshkent tumani	Qishloq xo‘jaligi vazirligi	Ilmiy-tadqiqot instituti, ma’muriy bino va issiqxona bino-inshootlari	3,	11:11:10:02:03:0819
6	Toshkent tumani	Qishloq xo‘jaligi vazirligi	“Motamsaro ona” haykali monemuntal yodgorlik	0,08	11:11:03:01:03:1233